

**MAKTAB O'QUVCHILARIDA RUBOB CHOLG'USI IJROCHILIGI
KO'NIKMASINI SHAKILLANTIRISHNING AMALIY USLUBLARI**

Azizjon Qosimov Botir o'g'li

Toshkent shahar Olmazor tumani

1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezis hozirgi kunda maktablarda olib borilayotgan musiqa darslarida o'zbek milliy cholg'usi bo'lmis rubob musiqa cholg'u asbobi ijrochiligi ko'nikmalarini o'quvchilarda shakllantirish haqida,

Kalit so'z: Qashqar rubob, mashg'lot, ijrochilik, musiqa faoliyati, ko'nikma, gamma, nota.

Imkoniyati cheklangan ixtisoslashtirilgan mакtabning musiqa darslarida va darsdan tashqari tadbirda qashqar rubobidan foydalanish mezonlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb vazifadir. Ma'lumki torli cholg'u asboblari sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Uyg'onish davrining olimi A.N. Farobi va olimlarning musiqaga oid risolalarida ud, tanbur, g'ijjak, nay va boshqa musiqa asboblari bilan bir qatorda, rubob va uning turlari haqida qimmatli dalillar keltirilgan. Qashqar rubobi O'zbekiston, Tojikiston va boshqa vohalarda havaskor professional sozandalar orasida keng tarqalgan. Bu cholg'u asboblari yakka soz sifatidagina emas, balki ansamblar va orkestr tarkibida ham qo'llaniladi. Qashqar rubobi uchun yozilgan darslik kitoblari, musiqa mакtabi o'qituvchilar va o'quvchilarining ehtiyojini kondirish uchun to'plangan dastlabki tajribalardan biridir.

O'zbek xalqlarida zamonaviy ijrochilik san'ati o'z taraqqiyotining ko'p asrlik an'analarini meros qilib oladi. Ularning ildizlari qadim-qadim davrlarga borib

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 9. September 2024

taqaladi.xalq cholg‘ulari uzoq o’tmishda paydo bo’lgan tarihiy manbalarga qaraganda dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan deb taxmin qilinadi. 1933 yilda O’rta Osiyolik olimlar tomonidan topilgan Ayratom shahristoni arxeologik qazilmalarida topilgan materiallar, qadimiy adabiy manbalar o’zidan ilgari turli xil musiqa asboblari bo’lganligidan dalolat beradi. Eramiz boshlarida turli tuman xalq cholg‘ularidan kundalik turmishda ovda saroy hayotida madaniy bayram marosimlarida, xalq sayillarida foydalanilgan. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari «Musiqa haqida katta kitob» («Kitob al musiqa al akbar»), Ulkan ahamiyatga ega. O’rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi sifatida musiqa cholg‘ularining jamiyat hayotida rolini o’rgatishga axamiyat beradi va u jangu jadallarda, raqlarda, to’y tomoshalarda chalinadigan o’ziga xos cholg‘ular bor deb yozgan edi.

Qashqar rubobida ijro repertuarini tanlash, to’plash va asarlar ustida ishlash masalalari hamma vaqt ham metodikani to’g’ri tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qashqar rubobini o’quvchilarga o’rgatish metodikalari pozitsiyada ishlash orqali xarakterlidir. Bu pozitsiyalar o’quvchini gamma va arpedjiolarni har xil shtrixlarda ijro etib, texnik mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda musiqiy badiiy asarlarni mohirona ijro etib rubobdan yoqimli, mayin, tiniq va sifatli tovush chiqarish imkoniyatini yaratadi:

Cholg‘u asbobini mohirona chalish uchun sozanda o’z cholg‘usini, tanlagan kasbini sevishi, muntazam o’z ustida ishlashi, ayniqsa, notaga qarab chalish malakasini o’stirib borishi, gammalar, uchtovushliklar, turli mashqlar, etyudlar, shtrixlar, ijro bezaklarini o’zlashtirish ustida tinimsiz shug‘ullanishi zarur.

Barcha ijrochilik mutaxassisliklari singari rubob ijrochiligidagi ham o’quvchilar qobiliyatini texnik va badiiy jihatdan uzlusiz rivojlantirish tamoyillari mavjud. O’quvchilarning badiiy malakalari va tasavvurlarini shakllantirish uchun badiiy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 9. September 2024

asarlar zarur bo‘lsa, o‘sha asarni sadolantirish, texnik mahoratini ta'minlash uchun esa gamma, mashq va etyudlar juda muhim. Ammo ular xoh uy vazifasi yoki darsda bo‘lsin, alohida badiiy mashg‘ulotdan ajralgan holda emas, balki bir butun badiiy maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi esa mакtab dasturiga kiritilgan asarlar repertuari bilan muntazam ishlash, ularni tahlil qilish, ijro yo‘llarini izlash, o‘rganilayotgan qo‘shiqlarga jo‘r bo‘lish mahoratlarini ham orttirib borishi lozim.

Rubobda gamma chalishdan asosiy maqsad chap qo‘l barmoqlarini to‘g‘ri qo‘yish, tordan torga o‘tish, pozitsiyalar almashishini o‘zlashtirish, to‘g‘ri shtrixlarga ega bo‘lish hamda tovushlarni ritmik jihatdan bir tekisda ravon va mutanosib kelishini ta'minlashdir.

Mashg‘ulotlar davomida ustoz shogirdiga etyudlarning asosiy uslubiy yo‘nalishini aniq belgilab, ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan holda yozilganligini tushuntirishi maqsadga muvofiq. Bunda ijrochilik mahorati badiiy asarning mazmunini ochishdagi maqsad emas, balki vosita ekanligini o‘quvchilar tushunib yetmog‘i lozim. O‘quvchining mustaqil tayyorlanishida ijrochilik texnikasini rivojlantiruvchi mashg‘ulot uchun vaqtini to‘g‘ri taqsimlashi ham katta ahamiyatga ega.

O‘quvchilar rubobni o‘rganishda chap qo‘l barmoqlarini to‘g‘ri qo‘yishni o‘zlashtirish va mustahkamlash, pozitsiyalar almashishi va to‘g‘ri shtrixlarga ega bo‘lish ko‘nikmasini egallash, rubob grifida notalarning joylashishini erkin topa olish, notani o‘qish va tordan-torga o‘tish kabi murakkab jarayonni diqqat bilan uddalashlari kerak.

Xalqimizning urf-odatlari, marosimlari va an'analariga berilayotgan e’tibor, ularni tiklash, saqlash va keyingi avlodga yetkazish yo‘lida qilinayotgan sa’yi harakatlar Mustaqillik tufayli erishgan yutuqlarimiz bilan bevosa bog‘liq. Zero, yurtimizning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni eng avvalo milliy an'analar,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 9. September 2024

o‘tmishimizga hurmat, tariximiz bilan g‘ururlanish ruhida tarbiyalash masalalariga davlat tomonidan e’tibor berilishi, ana shu sohaning mamlakat va millat uchun naqadar muhimligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистонда мусиқа санъатини янада ривожлантиришни қўллаб қувватлаш ва рағбатлантириш чоратадбирлари тўғрисида”ти Фармони. 1995 йил 20 октябрь // Ўзбекистон овози. – Тошкент, 1995. – 21 октябрь. – Б. 1-2.
2. Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадимизга етишда таянчимиз ва суюнчимиздир // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. – 1 июль.
3. Respublikada musiqiy ta’limni, madaniyat va san’at o‘quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to‘g‘risida; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 1997.
4. Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009-2014 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. T.: 2008.
5. Akbarov I.A. – Muzika lug‘ati. 2-nashri, T.: 1997.
6. Asilov. M. A. F. N. Vasilev «Rubob darsligi». T, 1977
7. Abdullaeva. O “Ansambl cholg‘ularini o‘rganish” T, 2006
8. Vasilev F. Qashqar rubobi uchun gammalar va arpedjiolar. Toshkent, 1980.
9. Liviev. A. Dutor va rubob ansamblari uchun pesalar. Toshkent, 1971.
10. Mansurov A. Cholg‘ulashtirish bo‘yicha amaliy namunalar va mashqlar.T, 2006.